

## ROMANDA SO‘Z VA OBRAZ UYG‘UNLIGI

**Ismonova Yorqinoy Abdumatalib qizi**

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU,

O‘zbek adabiyoti 10.00.02 ixtisosligi bo‘yicha 2-bosqich Tayanch doktoranti,

[ismonovayorqinoy@gmail.com](mailto:ismonovayorqinoy@gmail.com),

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada Abdulla Qodiriyning “Mehrobdan chayon” romani misolida badiiy tili, so ‘zlardan unumli va jozibali qilib o‘ziga xos uslubda foydalanish mahorati va romandagi so ‘zlar va obrazlar uyg‘unigi haqida gap boradi.*

**Kalit so‘zlar:** roman, obraz, personaj, arxaizm, arxaik, mubolag‘a, qahramon.

### **ANNOTATION**

*This article talks about the artistic language of Abdulla Qodiri’s novel “Mehrobdan Chayon”, the skill of using words effectively and attractively in a unique way, and the combination of words and images in the novel.*

**Key words:** novel, image, character, archaism, archaic, exaggeration, hero.

Badiiy adabiyotda tilning ahamiyati beqiyosdir. Vaholanki, yozuvchining o‘ziga xos uslubi, badiiy tili bo‘lmasa u yozgan asar o‘quvchiga yetarli darajada ta’sir qilmaydi. Manashunday o‘ziga xos til uslubi bilan ta’sir kuchiga ega bo‘lgan yozuvchilardan biri, adabiyotimizning buyuk darg‘alaridan bo‘lgan Abdulla Qodiriyyidir.

Abdulla Qodiriyni tilga olar ekanmiz, albatta uning “O‘tkan kunlar”, “Mehrobdan chayon” romanlari ko‘z oldimizga keladi. Asardagi har bir qiyofa ko‘z o‘ngimizda jonlidek namoyon bo‘ladi. Qaysidur qahramonlarga mehrimiz tushgan, ular bilan hayolan yaqindek bo‘lsak, yana ayrim qahramonlarga nafratimiz oshadi. Bu esa yozuvchining so‘zga jon bag‘ishlay olish qobiliyatiga ega ekanligidan dalolatdir.

Abdulla Qodiriyy juda boy so‘z xazinasiga ega bo‘lgan, har bir so‘z mohiyatini anglagan, nozik qirralarini topa olgan va ajoyib so‘zlar guldasasidan o‘z o‘rnida foydalana olgan. Garchi, Navoiy hazratlari aytganlaridek:

*Barcha ko ‘ngul durji aro javhar ul,*

*Barcha og ‘iz huqqasida gavhar ul.*

*Gar xud erur xanjari po ‘lod til,*

*So ‘ftidag ‘i injulari so ‘zni bil.*

*Til bu chamanning varaqi lolasi,  
So 'z duraridin bo 'lubon jolasi.*

*Donai dur so 'zini afsona bil,  
So 'zni jahon bahrida durdona bil.*

Abdulla Qodiriy chindan ham har bir so'zni durdona bilgan, ipga marjon tergandek mohirona foydalangan. Masalan, “Mehrobdan chayon” romanida adibning Ra'noga keltirgan ta'rifini olaylik: *“Ra’noning sochi gungurt – qora, ya’ni quyoshsiz joylarda qora ko‘runsa ham, quyoshda biro z sarg‘ish bo‘lib ko‘rinar edi. Shunga o‘xhash Ra’noning ko‘zida ham buning asari ko‘riladir: mudavvarga moyilroq jodu ko‘zi kishiga qattiq qarag‘anda qoraliqdan boshqacha yana bir turluq nur sochar edi. Kipriklari ostida nafis bir surma doirasi bor edi. Qoshi tutash kabi ko‘rinsa ham, ko‘ndalang yotqan ikki qilich orasini nafis bir quyulib ko‘tarilish ajratib turar edi. Burni hech bir munaqqidg‘a berishmaslik mutanosib, har zamon uyalish tabassumiga hozir turg‘an nafis irinlarining yuqorig‘i qismida sezilar-sezilmas tuklar ko‘kargan edi. Yuzi cho‘ziq ham emas, oy kulcha ham deb bo‘lmas, kishiga kulib qarag‘anda qizil olma ostlarida ikkita zamma ravishlik shakl hosil bo‘lar, go‘yo bizga chin ra’no guli ochilg‘an holatda ko‘rinar edi. Sochlari juda quyuq, sanoqsiz kokillar Ra’noning orqa, o‘ngini tutib yotar, qaddi uzunliq bilan qisqaliqning o‘rtasi, do‘ndiq barmoqlarining jimjilog‘ida xina gullari, har holda bu qiz yolg‘iz Qo‘qonningg‘ina emas, umuman Farg‘onaning kuylariga qo‘silib maxtaladiring‘on go‘zallaridan edi”*.

Yana bir o‘rinda adib shunday deb yozadi: *“Gumbazi niligun qandilinda sham‘i kofuriylar yoqila boshlag‘an edi”* ya’ni *“Moviy gumbazi qandilida shamlar yoqila boshlagan edi”*. Bu yerda yozuvchi tun tushganini va osmondagи yulduzlar asta sekin miltiray boshlaganini juda chiroyli tarzda tasvirlab beradi.

“Mehrobdan chayon” romanini ko‘zdan kechirar ekanmiz, adibning ona tilimiz xazinasidan asar voqeasini ifodalash, obrazlar xarakterini ohib berish uchun tanlab olingan so‘zлari tabiiy, ularni ishlatish usuli va yozuvchining tili ravonligiga amin bo‘lamiz. Personajlar nutqida dialektizm va arxaizmlardan, xalq maqol va iboralaridan, so‘z o‘yinlari, frazeologizmlardan unumli va o‘rinli foydalangan. Masalan, *“Ba’zan Shahodat mufti ishdan charchag‘an kabi .. tortib, o‘zicha: “Yamutal-asadu fil g‘abobi ju ‘an va lahmuttayri yutrahu lil-kilob (arslon changalzorda ochlikdan jon beradir, ammo itni qush go‘shti bilan boqadirlar (muall.))”, - desa, ikkinchi yoqdan Kalonshoh mirzo shu maqolning davomini so‘zlab: “Va xinziru yanomu fil-firosh va ulul-uquli yanomu allaturob (to‘ng‘iz hanuz huzur qilib to‘sakda uxbaydir,*

*oqillar tuproqda yotadirlar (muall.))” – der edi. Yoki “Kesak otib arslonni yengmakchi bo‘lg‘an galvarslarning ishiga kulgim qistaydir...” degan jumlalarda yaqqol namoyon bo‘ladi. Shuningdek muallif tarixiy va shevaga oid so‘zlardan ham foydalangan. Deylik, soqchini *tunqotar*, o‘nboshini *dahboshi*, bezangan so‘zi o‘rnida *yasamol*, tinglab olganni *tig‘nab og‘an*, mayiz so‘zini *magiz*, eskirib ketgan kiyimni *qusqi*, foydalini *kori xayr*, jajji so‘zini *mimit*, darhaqiqatni *agarchandi* deb keltirgan. Asarda *bo‘g‘joma, alak, buloqi, mursak, jevak, mohona, majjonan, shoyi ’a, mazana, mushkit* kabi hozirda arxaik bo‘lib ketgan juda ko‘plab tilimizga oid so‘zlarni uchratishimiz mumkin. Bu so‘zlarning ba’ri albatta, xalq tilidan olingan so‘zlardir.*

Shuningdek, romanda o‘xshatish, sifatlash, mubolag‘a kabi tasviriy vositalardan ham keng foydalanilgan. Masalan, qashqarning qizil guli avval pushti bo‘lgani va Ra’noring qizil lablaridan uyalib, 2yilda gul ham qizil tus organini yozuvchi juda chiroyli mubolag‘a qilgan. Yana bir o‘rinda: “*Mahdumga biror narsani tushuntirish, (masalan, Anvarning mirzaboshi bo‘lishni xohlamasligini) toshning qulog‘iga azon aytish bilan teng*” deydi, adib. Qolaversa, soqol mo‘rtigan yuzni “**nonga chumoli yopishgandek**” deya tasvirlaydi. Bunday mohirona o‘xshatishlarni asar davomida juda ko‘plab uchratish mumkin. Masalan, ayol kishining nozik hilqatligini, unga bo‘lgan munosabatda hamisha hushyor bo‘lish kerakligini yaxshi bilgan yozuvchi shunday deydi:

**-Ra’no burni ustidagi bilinar-bilnmas marvarid rezalarini<sup>1</sup> ro‘moli bilan artdi.**

Yuzdagagi ter tomchilarini marvarid tomchisiga mengzagan adib o‘zining nafaqat yozuvchilikdagi mahoratini balki, ayol kishiga bo‘lgan hurmatini ham ko‘rsatib ketgan. Vaholanki, issiqdanmi yoki hayajondan Ra’noring burun atrofini ter bosdi desa ham bo‘lar edi. Lekin bu holatda fikr g‘alizroq yoki Ra’noring betakror malohatiga biroz “lat” yetkazib qo‘ygandek bo‘lar edi.

Abdulla Qodiriy uslubiga xos san’atkorona mahorat uning badiiy asardagi qahramonlar tashqi qiyofasini tasvirlashda ham yaqqol ko‘zga tashlanadi. Adib asar qahramonlarining tashqi qiyofasini mohirlik bilan musavvirlarcha chizib bergen va bu chizgilarni jonli xalq tili boyliklaridan foydalangan holda amalga oshirgan. Masalan asardagi “Qiziqlar” bobida xonning qiziqchilarini juda mahorat bilan tasvirlagan: “*Chiqqanlardan biri pak-pakana, yum-yumaloq, lo‘p-lo‘nda bir maxluq edi. Uning gavdasi bu qadar “kelishkan” bo‘lishi ustiga, basharasi ham shunga monand tushkan, to mog‘ining ostida cho‘guri<sup>2</sup> qovundek bo‘qoq g‘ovlab yotar edi. Uning gavdasi misoli bir gupchak<sup>3</sup> bo‘lsa, shu gupchakning yuqorisig‘a kata bir suv*

<sup>1</sup> Reza (forscha: ushoq, parcha) – 1)uncha katta bo‘lman; mayda; kichik; 2) mayda narsa (suv yoki ter tomchilari).

<sup>2</sup> Cho‘gur – iyak ostidagi bir oz osilinqirab turgan yumshoq et, baqbaqa.

<sup>3</sup> Gupchak – g‘ildirakning markazidagi kegaylor qadalgan va o‘q o‘rnataladigan teshigi bo‘lgan o‘rtal qismi. Bu yerda *yumaloq, semiz* ma’nosida kelgan.

*qovoqni bosh bo‘lsin, deb o‘rnatqan edilar. Va bu yaltir qovoqning betida ko‘z bo‘lib, quyoshda qovjiragan ikkita g‘ulun turshak, og‘iz yerida bir kafsh, burun o‘rnida yuqorig‘a qarab o‘rmalag‘an bahaybat bir qurbaqa va qulog maqomida suv qovoqning ikki bag‘riga tiralg‘an ikki oshlov turar edi. Qosh va boshdag‘i soch to‘g‘risida og‘iz ochib bo‘lmas, ammo besh-o‘n tuk, ya’ni soqol mo‘rt g‘ira-shira ko‘zga chalinar edi. Sepkil va chechak dog‘i bu betni “muzoyaqakor” qilib ko‘rsatganidek oyog‘idagi choriq, ustidagi qisqa, eski alak chopon, belidagi besh-o‘n aylantirib bog‘langan bo‘z belboq, boshining uchdan bir qismigagina qo‘nib o‘lturgan tor pilta to‘ppi bir “husn”gay an bir yuz “husn” qo‘shib arz qilar edi. Bu maxluq doimiy o‘rdada turadiring‘an xonning kundalik qizig‘i mulla Baxtiyor edi”.*

Abdulla qodiriy voqelikni tasvirlashda so‘zlarni nihoyatda topqirlik bilan qo‘llaydi. Obrazga mos so‘zlarni o‘z o‘rnida joy-joyiga qo‘yib ishlatadi. Adibning tasvirlashidan asar qahramonlarining salbiy bo‘yoqqa ega ekanligi yaqqol sezilib turadi. Keltirilgan parchadagi “kelishgan”, “husn”, “muzoyaqakor” so‘zlaridan qahramonga nisbatan kinoya, piching, masxaralash va kulgi sezilib turadi. Bu esa adibning mahoratidan darak beradi va kitobxonni diqqatini tortib, asarni tugatmaguncha qo‘ldan qo‘ymasligiga sabab bo‘ladi. Xulosa qilib aytganda, Abdulla Qodiriy o‘z asarlari orqali qiyofa musavviri ekanligini yaqqol namoyon qiladi.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Alisher Navoiy “Hayratul-abror” O‘zbek adabiyoti bo‘stoni 1989.
2. Abdulla Qodiriy “Mehrobdan chayon” Toshkent-2019.
3. O‘zbek adabiy tanqidi Toshkent “Turon-Iqbol” 2011.
4. Kitoblardunyosi.uz